



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 03 | pp. 173-181 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AMORTIZATSIYA QILINADIGAN AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH



Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan yoritilgan. Jumladan, amortizatsiya qilinadigan aktivlar tarkibiga kiruvchi asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashga doir amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar hamda iqtisodiy manbalardagi yondashuvlar tadqiq qilingan holda takliflar ishlab chiqilgan va tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: aktiv, amortizatsiya qilinadigan aktiv, asosiy vosita, amortizatsiya, eskirish, amortizatsiya normasi, amortizatsiya usuli, soliq.

Аннотация. В данной статье научно освещены вопросы совершенствования учета амортизируемых активов. В частности, на основе изучения требований, установленных действующими нормативно-правовыми актами по начислению амортизации основных средств, входящих в состав амортизируемых активов, а также подходов в экономических источниках, разработаны предложения и сформулированы соответствующие выводы.

Ключевые слова: актив, амортизируемый актив, основное средство, амортизация, износ, норма амортизации, метод амортизации, налог.

Abstract. This article scientifically illuminates the issues of improving the accounting of depreciable assets. In particular, based on the study of the requirements established by current regulatory legal acts on the accrual of depreciation of fixed assets included in depreciable assets, as well as approaches in economic sources, proposals have been developed and relevant conclusions have been formulated.

Keywords: asset, depreciable asset, fixed asset, depreciation, depreciation, depreciation rate, depreciation method, tax.

Kirish

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi, jahon iqtisodiyotiga integratsiya va globallashuv jarayonlari hamda milliy hisob tizimiga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)larni joriy qilinishi sharoitida amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon buxgalteriya hisobi subyektlarining moliyaviy hisobotlarini ishonchli va shaffof shaklda shakllantirish, amortizatsiya xarajatlari va soliq bazasini aniqlash, aktivlardan samarali foydalanish va ularning texnik hamda iqtisodiy ahvolini baholash orqali strategik boshqaruv qarorlarini asosli qabul qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda axborotdan foydalanuvchilar uchun amortizatsiya qilinadigan aktivlarni tan olish, baholash, amortizatsiya hisoblash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish jarayonlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki, ular asosida buxgalteriya hisobi subyekting asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari va boshqa uzoq muddatli aktivlari to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlar taqdim etiladi. Bu ma'lumotlar esa, moliyaviy natijalar tarkibini shakllantirish, soliq bazasini aniqlash va kapitaldan samarali foydalanishni ta'minlashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

Albatta, xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari o'zlarining ilmiy va o'quv-uslubiy ishlarida amortizatsiyalanadigan aktivlar hisobini takomillashtirish borasida yondashuvlarini bayon etishgan. Xususan, N.A.Lytnevaning ta'kidlashicha, "Uzoq muddatli aktivlarning boshlang'ich qiymatini shakllantirish tartibidagi, shuningdek amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullaridagi farqlarni bartaraf etish zarur. Mazkur tafovutlar vaqtinchalik farqlarni keltirib chiqaradi hamda ular foyda solig'i bo'yicha soliq yukini ma'lum davrda oshirib, keyinchalik kamaytirishga olib keladi. Mazkur muammolarni amortizatsiya siyosati tanlovidagi cheklovlarni bekor qilish orqali hal etish mumkin. Ya'ni, amortizatsiyani hisoblashning turli usullarini erkin qo'llashga ruxsat berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, amortizatsiya usullari va uzoq muddatli aktivlarning boshlang'ich qiymatini shakllantirish qoidalaridan qat'i nazar, yakuniy natijada byudjetga tushadigan foyda solig'i summasi o'zgarmas bo'lib qoladi" [9].

D.A.Odaxovskaya, G.G.Pechennikovalarning qayd etishicha, "Agar buxgalteriya hisobida amortizatsiya uchun jadallashtirilgan usullar qo'llanilsa, ammo soliq hisobi maqsadlarida to'g'ri chiziqli usuli qo'llanilsa, amortizatsiya xarajatlari buxgalteriya hisobida soliq hisobidan yuqori bo'ladi. Bu holat, vaqtinchalik farqni, ya'ni kechiktirilgan soliq aktivini yuzaga keltiradi. Keyingi soliq davrlarida, amortizatsiya xarajatlari soliq hisobida buxgalteriya hisobidan yuqori bo'lgan paytda, avval hisoblangan kechiktirilgan soliq aktivini kamayishi va shu bilan bog'liq majburiyatlar ham qisqaradi.

Agar buxgalteriya hisobida amortizatsiyani hisoblashning chiziqli usuli qo'llanilsa, soliq hisobida esa, boshqa usul qo'llanilsa amortizatsiya xarajatlari soliq hisobida buxgalteriya hisobidan ko'p bo'ladi. Bu holat, vaqtinchalik soliqqa tortiladigan farqni yuzaga keltiradi. Ushbu farq, foyda solig'i stavkasiga ko'paytirilib, kechiktirilgan soliq majburiyati hisoblanadi. Natijada, foyda solig'ini hisoblash va to'lash bo'yicha joriy majburiyatlar kamayadi. Keyingi oylarda, amortizatsiya xarajatlari buxgalteriya hisobida soliq hisobidan ortib ketganida, yangi vaqtinchalik farq yuzaga keladi. Shu asosda, ilgari hisoblangan kechiktirilgan soliq majburiyati bosqichma-bosqich kamaytiriladi" [10].

Iqtisodchi olim S.N.Tashnazarovning yozishicha, «Har bir korxona o'zining hisob siyosatida bir davrdan ortiq xizmat qiladigan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki ma'muriy boshqaruv jarayonida foydalanadigan "mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar" tarkibini standart talablaridan kelib chiqib mustaqil belgilashlari kerak, deb o'ylaymiz. 5-son BHMS "Asosiy vositalar"da "mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar"ning xalqaro standartlarga muvofiq tarkibiy moddalarini keltirish hamda ishchi va mahsuldor hayvonlar hamda ko'p yillik o'simliklarni biologik aktiv sifatida tan olish tamoyillarini belgilovchi standart ishlab chiqish kerak. Xalqaro standartlar talablariga muvofiq "investitsiyaviy ko'chmas mulk" (080-satr), "biologik aktivlar" (120-

satr) hamda “sotish uchun mo‘ljallangan deb tasniflangan uzoq muddatli aktivlar va chiqib ketayotgan guruhlar aktivlari” (150-satr) uchun balansda alohida satr ajratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz» [8].

G.M.Raximova tomonidan asosiy vositalar hisobining metodologiyasini takomillashtirish borasidagi izlanishlarida tadqiqot obyekti bo‘lgan “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatining asosiy fondlariga amortizatsiya hisoblash muammosi o‘ta munozarali ekanligini va bunday holat aniq amortizatsiya siyosati yo‘qligi bilan izohlaydi. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning hisob siyosatiga asosiy vositalari hisobini samarali tashkil etishda asosiy vositalarni amortizatsiyasini jadallashtirilgan usuli MHXSga muvofiq, har bir agregatga alohida hisoblashni kiritish taklif etilgan.

Elektr energetikasida asosiy vositalarni hisobga olish sohasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobot tegishli bo‘limlariga ta’sir ko‘rsatadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish taklif etiladi. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ asosiy vositalarni hisobga olish uchun MHXSga mos keladigan amortizatsiyani hisoblashning tezlashtirilgan usulini har bir birlik uchun amortizatsiyani alohida hisoblash bilan amalga oshirish tavsiya etiladi” [7]. Muallifning ta’kidlashicha, berilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosiy vositalarni hisobga olishni tashkil etish samaradorligini oshiradi.

Iqtisodchi olim A.S.Boltayev o‘z tadqiqot ishlarida buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida asosiy vositalarga eskirish hisoblash tartibiga doir amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarining farqli jihatlarini ko‘rsatib o‘tadi (1-jadval) [6].

Shuningdek, muallif buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida amortizatsiyani hisoblash tartibini, uning bir xil va turli normalarda qo‘llanilishini amaliy ma’lumotlar asosida tahlil qiladi. Biroq, tadqiqot faqat qishloq xo‘jaligi faoliyatida foydalanilayotgan hosildor o‘simliklar bo‘yicha eskirish hisoblash tartibini milliy va xalqaro standartlar talablari asosida tadqiq qilib o‘rgangan holda buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida hisob siyosatlarining qoidalarini muvofiqlashtirish tartibini asoslash bilan cheklanadi.

X.Sh.Arifxanova “16-son MHXSga asosan asosiy vositalarni eskirishi bu asosiy vositalarni eskirish hisoblanadigan qiymatini uning foydali xizmat muddati davomida tizimli asosda xarajatlarga yoki mahsulot qiymatiga olib borishni angalatadi. 5-sonli BHMSga asosan esa, amortizatsiyalanadigan qiymat butun foydali xizmat muddati mobaynida subyekt xarajatlariga amortizatsiya ajratmalari ko‘rinishida tizimli taqsimlanib borilishi sifatida ko‘riladi” [5] deb ta’kidlagan holda asosiy vositalar amortizatsiyasini hisoblashdagi tafovutlarni keltirib o‘tadi.

Bunda muallif asosiy vositalarning amortizatsiyasini hisobga olishda sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatishini, shunga qaramasdan, xalqaro amaliyotda amortizatsiya to‘lovlarini hisoblash usullari milliy standart bo‘yicha hisoblash usuliga mos kelishini bayon qiladi xolos. Ya’ni, muallif tomonidan kuzatilgan sezilarli farqlar qanday farqlar, ularning korxona moliyaviy holatiga va moliyaviy natijalariga ta’siri qanday, moliyaviy va soliq hisobi o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash uchun qanday tartibda asosiy vositalar amortizatsiyasini tashkil etish kerak kabi masalalarga to‘xtalib o‘tmaydi.

1-jadval

Buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida asosiy vositalarga eskirish hisoblash tartibining qiyosiy tahlili¹

Ko'rsatkichlar	Buxgalteriya hisobi maqsadlarida	Soliq solish maqsadlarida
Amortizatsiya hisoblash	- obyekt asosiy vositalar tarkibiga qabul qilingan oydan keyingi oyning 1-sanasidan boshlanadi; - obyektning amortizatsiyalanadigan qiymati to'liq so'ndirilgan yoki u balansdan hisobdan chiqarilgan oydan keyingi oyning 1-sanasidan to'xtatiladi.	- foydalanishga (asosiy vositalar tarkibiga) topshirilgan sanadan e'tiboran boshlanadi; - asosiy vositalarning qiymati to'liq hisobdan chiqarilgan sanadan e'tiboran yoki amortizatsiya qilinadigan aktivlar tarkibidan har qanday asosga ko'ra chiqaril-ganda tugatiladi.
Amortizatsiya normalari	Hisob siyosatida asosiy vositalarning baholangan foydali xizmat muddati va amortizatsiya hisoblash usuliga bog'liq holda belgilanadi.	Soliq soliq maqsadlaridagi hisob siyosatida belgilanadi. Ular eskirish xarajatlari chegiriladigan xarajatlarga kiritiladigan normalardan oshmasligi lozim.
Amortizatsiya hisoblash usullari	Amortizatsiya hisoblash quyidagi usullarni qo'llash yo'li bilan hisoblanadi: - amortizatsiyani bir maromli (to'g'ri chiziqli) hisoblash; - amortizatsiyani bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda hisoblash (ishlab chiqarish usuli); - ikki baravar amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli; - yillar yig'indisi usuli (kumulyativ usul).	Amortizatsiya hisoblash to'g'ri chiziqli usul orqali amalga oshiriladi.
Qayta baholangan asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash	Asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymati qayta baholangan hollarda keyingi hisoblanadigan amortizatsiya qayta baholangan qiymat hisobidan amalga oshiriladi.	Amortizatsiya bo'yicha chegiriladigan xarajatlarni aniqlashda faqat 2021-yil 1-yanvarga qadar o'tkazilgan qayta baholash natijalari hisobga olinadi.

¹ Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Amortizatsiya qilinmaydi	Soliq kodeksining 306-moddasi 7-qismining 8-11 bandlarida keltirilgan manba-lar hisobidan olingan, yoki sotib olingan (yaratilgan) tegishli qismi bo'yicha amortizatsiya hisoblanadi.	Soliq kodeksining 306-moddasi 7-qismining 8-11 bandlarida keltirilgan manbalar hisobidan olingan, yoki sotib olingan (yaratilgan) tegishli qismi bo'yicha amortizatsiya hisoblanmaydi.
--------------------------	---	--

Tadqiqot metodlari

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini takomillashtirish masalasini tadqiq qilib o'rganishda amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to'plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo'yish kabi nazariy-tadqiqot hamda ilmiy adabiyotlar, kuzatish va davr oralig'ida tadqiq qilish kabi empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning amortizatsiyalanadigan aktivlarga amortizatsiya hisoblash va hisobga olish borasidagi yondashuvlarini e'tirof etgan holda amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, BHMS bo'yicha moliyaviy hisobot tuzuvchi buxgalteriya hisobi subyektlarida amortizatsiya qilinadigan aktivlar tarkibiga kiruvchi birgina asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash va hisobga olish tartibi, 5-sonli "Asosiy vositalar" BHMS asosida tartibga solinadi. Xususan, unda asosiy vositalar qiymati amortizatsiya hisoblash asosida qoplanishi belgilangan. Shuningdek, asosiy vositalarning amortizatsiyalanadigan qiymati uning foydali xizmat muddati davomida amortizatsiya xarajatlari sifatida tegishli xarajatlar guruhiga olib borilishi qayd etilgan.

5-sonli BHMSda asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash quyidagi usullarda amalga oshirilishi belgilangan:

"a) amortizatsiyani bir maromli (to'g'ri chiziqli) hisoblash;

b) amortizatsiyani bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda hisoblash (ishlab chiqarish usuli).

Asosiy vositalardan intensiv foydalanilganda, shuningdek ilmiy-texnikaviy jarayonning katta ta'sirida asosiy vositalar amortizatsiyasi quyidagi usullarda hisoblanadigan jadallashtirilgan amortizatsiya yo'li bilan ifodalanadi:

a) ikki baravar amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli;

b) yillar yig'indisi usuli (kumulyativ usul) [2].

Mazkur standart asosiy vositalarning har xil turlariga turli amortizatsiya hisoblash usullarini qo'llashga ruxsat beradi. Bunda faqat bir turdagi asosiy vosita turi bo'yicha bitta usul qo'llanilishi lozim. Albatta, asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashda qo'llanilayotgan usul hisob siyosatida aks ettirilishi shart.

Asosiy vositalarga qo'llanilayotgan amortizatsiya hisoblash usulidan qat'iy nazar (ishlab chiqarish usulidan tashqari), hisoblangan yillik amortizatsiya summasi 1/12 miqdorida hisobot yili davomida har oyda hisobga olinadi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, foydali xizmat muddati davomida hisoblangan amortizatsiya summasi hisobda alohida schyotlarda jamg'arish asosida aks ettiriladi. 21-sonli BHMSGa muvofiq "Tashkilotning mulki hisoblangan yoki moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 0211 "Yerni obodonlashtirishning eskirishi";
- 0212 "Moliyaviy ijaraga olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi";
- 0220 "Bino, inshoot va uzatuvchi moslamalarning eskirishi";
- 0230 "Mashina va asbob-uskunalarining eskirishi";
- 0240 "Mebel va ofis jihozlarining eskirishi";
- 0250 "Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasining eskirishi";
- 0260 "Transport vositalarining eskirishi";
- 0270 "Ishchi hayvonlarning eskirishi";
- 0280 "Ko'p yillik o'simliklarning eskirishi";
- 0290 "Boshqa asosiy vositalarning eskirishi";
- 0299 "Moliyaviy ijaraga olingan asosiy vositalarning eskirishi" [3].

Buxgalteriya hisobi subyektlari asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiya summasini, tegishli asosiy vosita turkumiga kiruvchi asosiy vositaga hisoblangan eskirish summasi, shu asosiy vositaning eskirishini hisobga oluvchi (0200) schyotning kreditida, asosiy vositadan foydalanish maqsadidan kelib chiqqan holda tegishli xarajatlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan schyot bilan bog'langan holda aks ettiradi.

MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzuvchi buxgalteriya hisobi subyektlarida asosiy vositalarga eskirish hisoblash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish bo'yicha minimal talabalar 16-sonli "Asosiy vositalar" BHXSda belgilangan.

Mazkur BHXSda "Eskirish usuli tadbirkorlik subyekti tomonidan aktivdan olinadigan kelgusi iqtisodiy naflar qay tarzda sarflanishini aks ettirishi kerak.

Aktiv bo'yicha qo'llaniladigan eskirish usuli kamida har moliyaviy yilning oxirida qayta ko'rib chiqilishi kerak va, aktivda mujassamlangan kelgusi iqtisodiy naflar olinishi kutilayotgan tarzda ahamiyatli o'zgarish paydo bo'lganida, ushbu o'zgargan tarzni aks ettirish uchun qo'llaniladigan usul ham o'zgartirilishi kerak. Bunday o'zgarish buxgalteriya hisobi maqsadida baholashdagi o'zgarish sifatida 8-sonli BHMSGa muvofiq hisobga olinishi kerak" [4] ligi belgilangan.

Shuningdek, unda asosiy vositaning amortizatsiyalanadigan qiymatini uning foydali xizmat muddati davomida sistematik tarzda xarajatlarga olib borish uchun turli eskirish hisoblash usullaridan foydalanish mumkin belgilangan holda to'g'ri chiziqli, kamayib boruvchi qoldiq va ishlab chiqarish birligi usullari hamda ularning tavsifi keltirib o'tilgan.

MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzuvchi buxgalteriya hisobi subyektlari asosiy vositaga eskirish hisoblashda unda mujassamlangan kelgusi iqtisodiy naf qay tarzda sarflanishini aniqroq aks ettiradigan usulni tanlashi va uni hisob siyosatida aks ettirgan holda qo'llashi lozim.

Amaldagi soliq kodeksida esa, "Amortizatsiya qilinadigan barcha aktivlar (bundan nomoddiy aktivlar mustasno) bo'yicha amortizatsiyani hisoblash amortizatsiyaning

quyidagi eng yuqori normalari qo'llanilgan holda to'g'ri chiziqli usul orqali amalga oshiriladi:

Guruhlar tartib raqami	Kichik guruhlar tartib raqami	Amortizatsiya guruhlarining (kichik guruhlarining) nomi	Amortizatsiyaning normasi, foizlarda
I		Binolar va inshootlar	
	1	Binolar	5
	2	Inshootlar	10
II		Quvurlar, elektr uzatish va telekommunikatsiyalar liniyalari	15
III		Mashinalar va uskunalar (transport uskunalaridan tashqari)	20
IV		Transport uskunolari	
	1	Havo va kosmik uchish apparatlari va ular bilan bog'liq uskunalar, kemalar va qayiqalar, lokomotivlar va harakatdagi tarkib (temir yo'l tarkibi)	10
	2	Avtotransport vositalari, avtomobil kuzovlari (korpuslari), tirkamalar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunolari	20
V		Kompyuterlar va periferiya uskunolari	40
VI		Boshqa guruhlariga kiritilmagan amortizatsiya qilinadigan aktivlar	15

Soliq solish maqsadi uchun amortizatsiya summasi soliq to'lovchilar tomonidan har oyda aniqlanadi. Amortizatsiya har bir amortizatsiya qilinadigan aktiv bo'yicha alohida hisoblanadi hamda uning boshlang'ich qiymatining va ushbu obyekt uchun belgilangan amortizatsiya normasining ko'paytmasi sifatida aniqlanadi [1].

Endi, yuqorida asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash va hisobga olishning amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan me'yoriy talablarining amaliyotda qay darajada tatbiq etilayotganligiga to'xtalib o'tmoqchimiz. Chunki, monografik tadqiqot obyektlarida asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash va hisobga olish jarayonining amalda qanday tashkil etilganligi, mavjud amaliyotning me'yoriy talablarga muvofiqligi va ular o'rtasidagi farqlarni o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, monografik tadqiqot obyektlarida asosiy vositalarga eskirish hisoblash va hisobga olish jarayonining qanday amalga oshirilayotganligi tadqiq qilib o'rganildi. Xususan, tadqiqot obyekti bo'lgan "Tahiatosh don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatining hisob siyosatida asosiy vositalarga eskirish hisoblashga doir quyidagi qoida belgilangan: "3.4. Eskirish O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan amortizatsiya normalariga muvofiq, asosiy vositalar qiymatini korxona xarajatlariga to'g'ri chiziqli usulda hisobdan chiqarish orqali hisoblanadi".

"Tahiatosh don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati o'zida mavjud asosiy vositalarga hisob siyosatida belgilangan qoidaga asoslangan holda amaldagi soliq kodeksida belgilangan amortizatsiya normalaridan foydalangan holda to'g'ri chiziqli usulda eskirish summasini hisoblaydi. Jamiyatda hisobot davri uchun hisoblangan amortizatsiya summasi 1/12 miqdorida har oyda asosiy vositalardan foydalanish

obyektlari kesimida “Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash qaydnomasi”da hisobga olinadi hamda asosiy vositadan foydalanilgan faoliyat xarajatlari sifatida buxgalteriya hisobida aks ettiriladi (2-jadval).

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Tahiatosh don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash va hisobga olish tartibi amaldagi BHMS va Soliq kodeksida belgilangan talablar asosida tashkil etilgan. Biroq, bizning fikrimizcha, mazkur yondashuvni to‘liq samarali deb baholab bo‘lmaydi. Chunki, jamiyat tomonidan Soliq kodeksida belgilangan amortizatsiya normalaridan foydalanilishi natijasida asosiy vositaning amortizatsiya qilinadigan qiymatini qoplash muddati bilan uning foydali xizmat muddati o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelmoqda. Natijada, amortizatsiya hisobi orqali aktivning amortizatsiya qilinadigan qiymati to‘liq qoplangan bo‘lsada, ushbu asosiy vositadan keyingi davrlarda ham moliyaviy-xo‘jalik faoliyatida foydalanilmoqda. Bu esa, amortizatsiya siyosatining yetarli darajada asoslanmaganligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar

Umuman olganda, milliy amaliyotda asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashda Soliq kodeksida belgilangan normalardan foydalanish tendensiyasi keng tarqalgan. Bu avvalo, hisob-kitoblarning soddaligi va qulayligi, shuningdek soliq organlari bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kelishmovchiliklarning oldini olishga intilish bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, moliyaviy hisob va soliq hisobini maksimal darajada uyg‘unlashtirishga bo‘lgan harakat, malakali mutaxassislar yetishmasligi va amalda qo‘llanilayotgan axborot tizimlarining soliq normalariga moslashganligi mazkur yondashuvning keng qo‘llanilishiga olib kelmoqda. Biroq, bunday amaliyot yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, har doim ham iqtisodiy jihatdan asosli hisoblanmaydi. Shu bois, amortizatsiyani hisoblashda korxonalar tomonidan iqtisodiy mazmundan kelib chiqqan holda mustaqil yondashuvlarni qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashda BHMS, MHXS va Soliq kodeksida belgilangan talablarni o‘zaro muvofiqligini ta’minlash maqsadida amaldagi Soliq kodeksining 306-moddasini quyidagi tahrirdagi qo‘shimcha o‘zgartirishlar bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

“Soliq to‘lovchi soliqni hisoblab chiqarish maqsadida amortizatsiyani ushbu moddada belgilanganidan pastroq normalar bo‘yicha hisoblashga haqli”².

“Amortizatsiya qilinadigan aktiv, shu jumladan qonunchilikka muvofiq huquqlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan amortizatsiya qilinadigan aktivlar bo‘yicha amortizatsiyani hisoblash ushbu aktiv, u davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan qat’i nazar, foydalanishga topshirilgan sanadan e’tiboran boshlanadi”³.

Mazkur tahrirdagi qo‘shimcha o‘zgartirishlarning amaldagi Soliq kodeksining 306-moddasida aks ettirilgan holda belgilanishi quyidagilarga imkon beradi:

birinchidan, soliq to‘lovchi sifatida buxgalteriya hisobi subyektlariga amortizatsiyalanadigan aktivlar bo‘yicha amortizatsiya siyosatida moslashuvchanlik beradi. Natijada, amortizatsiya qilinadigan aktivlarning haqiqiy foydali xizmat muddati

² Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

³ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

va ulardan foydalanish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amortizatsiya normalarini mustaqil belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi;

ikkinchidan, amortizatsiya qilinadigan aktivlarga amortizatsiya hisoblash bo'yicha BHMS, MHXS va Soliq kodeksida belgilangan talablar o'rtasidagi farqni qisqartirishga xizmat qiladi. Ya'ni, buxgalteriya maqsadlarida qo'llanilayotgan amortizatsiya qilish usuli va normalarini soliq solish maqsadlarida ham qo'llash imkonini beradi;

uchinchidan, ma'lumki, amortizatsiya qilinadigan aktivdan haqiqiy foydalanish boshlangan vaqtdan, uning qiymati iste'mol qilinadi. Shu nuqtai-nazardan, mazkur aktivga nisbatan ham amortizatsiya hisoblash ushbu vaqtdan boshlanishi lozim deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, bunday yondashuv moliyaviy hisobotda xarajatlarni to'g'ri davrlarga taqsimlashni ta'minlaydi. Bu esa, moliyaviy hisobot axborotlarining haqqoniyligi va ishonchliligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri). <https://lex.uz/docs/4674902>
2. Buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-sonli BHMS) "Asosiy vositalar". <https://lex.uz/docs/7058293>
3. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti (21-sonli BHMS) "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". <https://lex.uz/acts/417624>
4. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (16-son BHXS) "Asosiy vositalar" <https://lex.uz/uz/docs/6312360>
5. Arifxanova X.Sh. Soliq va buxgalteriya hisobini yuritishda asosiy vositalar hisobining dolzarb masalalari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024-yil, aprel. № 4-son. 1359-1364 betlar
6. Boltayev A.S. Qishloq xo'jaligi faoliyati hisobining metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – T.: 2025. – 76 b.
7. Raximova G.M. Asosiy vositalar hisobi metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2025. – 26 b.
8. Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T. TMI, 2019. – 21 b.
9. Лытнева Н.А. Бухгалтерский учет / Н.А. Лытнева, Л.И. Малявкина, Г.В. Федорова. - М.: Инфра-М, 2015. - 512 с.
10. Одаховская Д.А., Печенникова Г.Г. Бухгалтерский и налоговый учет основных средств, нематериальных активов и амортизационных отчислений в целях развития и совершенствования подходов к оценке имущества компании. Известия Байкальского государственного университета. 2019. Т. 29, № 1. С. 113–122

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

